

**ZAMAXSHARIYNING “AL-MUFASSAL” VA “ASOS AL-BALOG‘A”
ASARLARIDAGI GRAMMATIK VA USLUBIY QARASHLAR TAHLILI**

Eshboyev Shohzod Normamatovich

*Samarqand davlat chet tillar instituti Lingvistika
(arab tili) yo‘nalishi 2-bosqich magistranti*

E-mail: ibrohimeshboyev0877gmail.com

Telefon raqami: +998 (99) 336 66 69

***Annotatsiya.** Mazkur maqola Imom Mahmud Zamaxshariyning “Al-Mufassal” va “Asos al-Balog‘a” asarlarida aks etgan grammatik va stilistik qarashlarini tahlil qiladi. Tadqiqot davomida asarlardagi nahviy va balog‘iy kategoriyalar, ularning Qur‘on tili bilan bog‘liqligi, va zamonaviy lingvistik nazariyalar bilan uyg‘unlik darajasi chuqur o‘rganiladi. Ayniqsa, e‘rob tizimi, muftado-xabar munosabati, leksik-semantik tafovutlar, stilistik konnotatsiyalar va kognitiv metafora tahliliga alohida e‘tibor qaratilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Zamaxshariy, Mufassal, Asos al-Balog‘a, arab grammatikasi, balog‘at, e‘rob, muftado-xabar, semantika, stilistika, kognitiv tahlil.*

***Аннотация.** Данная статья посвящена анализу грамматических и стилистических взглядов Имама Махмуда Замахшари, изложенных в его трудах «Аль-Муфассаль» и «Асас аль-Балага». В ходе исследования подробно рассматриваются синтаксические и риторические категории, их связь с языком Корана, а также соответствие современным лингвистическим теориям. Особое внимание уделяется системе и‘раб, отношению между муфтада и хабар, лексико-семантическим оттенкам, стилистическим коннотациям и когнитивной метафоре.*

***Ключевые слова:** Замахшари, Муфассаль, Асас аль-Балага, арабская грамматика, риторика, и‘раб, муфтада и хабар, семантика, стилестика, когнитивный анализ.*

***Annotation.** This article analyzes the grammatical and stylistic theories of Imam Mahmud al-Zamakhshari as presented in his works Al-Mufassal and Asas al-Balaghah. The study explores syntactic and rhetorical categories, their connection to the language of the Qur‘an, and their compatibility with modern linguistic theories. Special attention is given to the system of i‘rab, the muftado-khabar relationship, lexical-semantic nuances, stylistic connotations, and cognitive metaphor analysis.*

***Key words:** Zamakhshari, Al-Mufassal, Asas al-Balaghah, Arabic grammar, rhetoric, i‘rab, muftado-khabar, semantics, stylistics, cognitive analysis.*

KIRISH

Arab tilshunosligi, ayniqsa grammatik tafakkur va balog‘at nazariyasi, tarixan jahon madaniyatida o‘ziga xos ilmiy maktab yaratgan sohalardan biridir. Bu maktablarning shakllanishi, rivojlanishi va takomillashuvida o‘rta asrlardagi musulmon tilshunos olimlarining hissasi beqiyosdir. Ayniqsa, Abul Qosim Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy (1075–1143-y.y.) kabi allomalar, o‘zlarining chuqur

tahlilga asoslangan ilmiy merosi bilan arab tilining grammatik va stilistik poydevorini mustahkamlab bergan.

Mahmud Zamaxshariy tomonidan yozilgan “Al-Mufasssal fi san‘at al-e‘rob” va “Asos al-Balog‘a” asarlari arab tilshunosligida nazariy va amaliy uyg‘unlikning yorqin namunasi sifatida baholanadi. Bu asarlar nafaqat zamonaviy arab grammatikasi rivojiga, balki stilistika, semantika va lug‘atshunoslik sohalariga ham katta ta’sir ko‘rsatgan.

Zamaxshariyning ilmiy merosi bugungi zamon lingvistikasi nuqtai nazaridan ham dolzarb hisoblanadi. Chunki u o‘z asarlarida til hodisalarini tahlil qilishda nafaqat nazariy aniqlik, balki ijtimoiy-ma’naviy, kontekstual va estetik jihatlarni ham chuqur yoritgan. Uning yondashuvi arab tili grammatikasi va balog‘atining ijtimoiy-semantik xarakterini ochib beradi.

Zamonaviy tilshunoslik nazariyalari–xususan kognitiv lingvistika, pragmatic semantika, generativ grammatika va stilistik psixolingvistika–tilni inson tafakkuri, muloqoti va idrok mexanizmi bilan bog‘liq holda tahlil qiladi. Shu jihatdan, Zamaxshariyning yondashuvi bu nazariyalar bilan qiyosiy tadqiqotlar olib borishga imkon beradi.

Ushbu maqola Zamaxshariyning “Al-Mufasssal” va “Asos al-Balog‘a” asarlaridagi grammatik va uslubiy qarashlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Unda grammatik tasniflar va tarkibiy birliklar, stilistik usullar, leksik-semantik yondashuvlar va arab tili grammatik maktablari (Basra va Kufa) o‘rtasidagi metodologik farqlar tahlil qilinadi. Shuningdek, Zamaxshariy qarashlarining zamonaviy arab grammatikasiga va o‘qitish metodikasiga ta’siri ham yoritiladi.

Arab tilining klassik grammatikasi so‘z ohangi, gap tuzilishi va ma’no o‘rtasidagi uzviylikka tayanadi. Zamaxshariy o‘z yondashuvini Qur’on tilidan ilhomlanib asoslaydi. U aytadi: "إنَّ النحو علم يضبط به اللسان، ويهدِّب به البيان." Ya’ni, “Nahv–tilni tartiblaydigan, bayonni nafislashtiradigan ilm hisoblanadi.” Bu yondashuv tilni faqat grammatika emas, balki axloqiy va tafakkuriy vosita sifatida ko‘radi. Shu sababli u “Asos al-Balog‘a”da iboralarni tanlashda ham til estetikasi va konteksti asosida yondashadi.

Masalan: “غضب”, “حنق”, “سخط”–har uchalasining leksik ildizi yaqin bo‘lsa-da, semantik ma’nolari har xil. Zamaxshariy har birini alohida tahlil qiladi va shunday deydi: "الغضب حركة النفس لانفعال مذموم، والحنق أشد، والسخط يدل على كراهية متأصلة." Ya’ni, “G‘azab–bu yomon ko‘riladigan bir ta’sirdan paydo bo‘ladigan nafsning harakatidir; hanq (ya’ni, kuchli g‘azab) undan-da kuchliroqdir; saxat esa (ya’ni, nafrat) chuqur ildiz otgan nafratni bildiradi.” Bu tahlil nafaqat semantik, balki psixologik yondashuvni ham anglatadi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi–Mahmud Zamaxshariyning “Al-Mufassal” va “Asos al-Balog‘a” asarlarida bayon etilgan grammatik va stilistik qarashlarini nazariy hamda qiyosiy asosda tahlil qilish va ularning zamonaviy lingvistika kontekstidagi ahamiyatini aniqlashdan iborat. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1. “Al-Mufassal” asaridagi nahviy tizimni tahlil qilish;
2. “Asos al-Balog‘a” asaridagi leksik-semantik va stilistik usullarni o‘rganish;
3. Har ikki asarda namoyon bo‘ladigan Basra va Kufa nahviy maktablari ta‘sirini aniqlash;
4. Grammatik terminologiyani zamonaviy lingvistik atamalar bilan taqqoslash;
5. Zamaxshariyning yondashuvini zamonaviy arab grammatikasi, stilistikasi va o‘qitish metodikasi bilan bog‘lash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqotda “Al-Mufassal” va “Asos al-Balog‘a” asarlari birgalikda va tizimli tarzda ilk bora nazariy va stilistik jihatdan birgalikda tahlil qilindi. Arab grammatikasining klassik nahviy tizimi bilan zamonaviy lingvistik nazariyalar o‘rtasidagi qiyosiy o‘xshashlik va tafovutlar ochib berildi. Zamaxshariyning tilshunoslikdagi yondashuvlarining kognitiv va semantik asoslari chuqur ilmiy tahlilga tortildi. Bu yondashuv orqali esa Zamaxshariy grammatikasining bugungi tilshunoslikda ham aktual bo‘lishi isbotlanmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mahmud Zamaxshariyning grammatik va stilistik qarashlarini o‘rganishda klassik va zamonaviy manbalarga asoslanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada foydalanilgan adabiyotlar tarixiy manbalar, zamonaviy tadqiqotlar va qiyosiy tilshunoslik yondashuvlarini o‘z ichiga oladi.

Avvalo, “Al-Mufassal” va “Asos al-Balog‘a” kabi Zamaxshariy qalamiga mansub asarlar tahlilning asosiy obyektini tashkil etadi. “Al-Mufassal” arab tili nahviy tizimini chuqur o‘rganuvchi manba sifatida grammatika tuzilmalari va e‘rob tamoyillarini o‘z ichiga oladi. “Asos al-Balog‘a” esa arab tili leksikasi, semantik tafovutlar va stilistik vositalar bo‘yicha yirik manbadir.

Ibn Ya‘ishning “Sharh al-Mufassal” asari mazkur grammatik asarga yozilgan eng keng va mukammal sharhlardan biri bo‘lib, Zamaxshariyning fikrlarini izohlab, ba‘zan tanqidiy yondashuvlar ham keltiradi. Bu izohlar tadqiqot uchun muhim dalil sifatida xizmat qiladi.

Abu Hayyon, Ibn Hisham kabi grammatiklar esa Zamaxshariyga ijobiy yoki tanqidiy nuqtai nazardan yondashgan, bu esa ularning asarlari orqali maktablararo farqlarni o‘rganishga imkon yaratadi.

Zamonaviy tadqiqotchilar – Muhammad al-Tunjiy va Salohiddin al-Xuliyiy–Zamaxshariyning grammatik merosini semantik va stilistik tahlil asosida o‘rgangan bo‘lib, ularning ishlari maqoladagi nazariy yondashuvlar asosini tashkil etadi.

Mustafa G‘alvash, Ahmad Muxtor Umar va Toha Husayn kabi olimlar esa arab grammatikasi tarixiy rivoji doirasida Zamaxshariyning o‘rnini belgilab bergan. Ularning asarlaridan Basra va Kufa maktablari bilan bog‘liq ma‘lumotlar hamda nahviy qarashlarning shakllanish jarayonida foydalanilgan.

Shunday qilib, maqolada foydalanilgan adabiyotlar klassik manba, zamonaviy arab tilshunosligi, stilistika, semantika va lingvistik tarix doirasidagi muhim ilmiy yondashuvlarni qamrab oladi. Ularning uyg‘unlashtirilgan tahlili orqali Zamaxshariy asarlarining dolzarbligi va ilmiy o‘rni aniq ochib beriladi.

Tadqiqot quyidagi metodlarga asoslanadi:

1. Tavsifiy-analitik metod – asarlar matnlarini ilmiy tahlil qilish;
2. Qiyosiy lingvistik metod – klassik va zamonaviy grammatikani solishtirish;
3. Kognitiv va pragmatik tahlil – til va tafakkur bog‘liqligini ko‘rsatish.

MUHOKAMA

Abul Qosim Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy 1075-yilda Xorazm viloyatining Zamaxshar qishlog‘ida tavallud topgan. Ilk ta‘limni mahalliy mudarrislar qo‘lida olgan olim, yoshligidan Qur‘on, hadislarga, til ilmlariga katta qiziqish bildirgan. U Sharqning ko‘plab ilmiy markazlarida–Marv, Buxoro, Nishopur, Bag‘dod, Naysabur, Makka kabi shaharlarda ilm talab qilgan.

Zamaxshariy o‘zining grammatik qarashlarini Qur‘on tili asosida quradi. U Qur‘onni fasohat, nahviy nozikliklar va stilistik uslublar bilan chuqur tahlil qilish orqali grammatika nazariyasiga asos solgan. U shunday deydi: " القرآن مصدر البيان. " وأصول النحو مستخرجة من أفانينه Ya‘ni, "Qur‘on bayonning manbaidir, nahv qoidalari esa uning go‘zalliklaridan chiqarilgan".

Zamaxshariyning grammatik yondashuvi asosan Basra nahviy maktabi asosida shakllangan. U Basra maktabining qat‘iy mantiqiy-tahliliy usuliga tayanadi. Biroq, Kufa maktabiga xos bo‘lgan she‘riy dalillar va amaliy tajribalarni ham inobatga oladi. Uning "Al-Mufassal" asarida quyidagi ibora bunga dalildir: "Basraliklar bu fikrni, kufaliklar esa boshqasini tanladilar. Men esa quyidagini afzal ko‘raman...").

Bu yondashuv mustaqil fikr yuritish, maktablar o‘rtasida tanqidiy muvozanat yaratish uslubidir.

Zamaxshariyning ilmiy merosi undan keyingi grammatik maktablarga chuqur ta‘sir ko‘rsatgan. Uning eng mashhur shogirdlaridan biri Abul Fath Nosir Mutarriziy bo‘lib, "Misboh al-Arabiyya" asarida Zamaxshariy metodini davom ettirgan.

Zamaxshariyning nahviy va balog'iy qarashlari hozirgi kunda quyidagi sohalarga asos bo'ladi:

1. Arab grammatikasi va stilistikasini integratsiyalashgan holda o'qitish;
2. Semantik pragmatika va tafsir tahlilini bog'lash;
3. Qur'on tafsirida lug'aviy-stilistik mezonlarni ishlab chiqish.

Zamaxshariy o'z grammatik tizimini Qur'on tili, hadisi shariflar, arablarning nasriy va she'riy naqllari asosida quradi. U tilni faqat insoniy aloqa vositasi emas, balki ilohiy muqaddas matnning asosiy anglash kaliti deb hisoblaydi. Shu sababli, u grammatik qoidalarni Qur'on oyatlari bilan mustahkamlab boradi.

Masalan, muftado va xabar strukturasi izohlarkan, u shunday oyatga murojaat qiladi: "إِنَّمَا الْمُؤْمِنُونَ إِخْوَةٌ" (Hujurot, 10). Bu yerda "المؤمنون" muftado, "إخوة" esa xabar bo'lib, "إِنَّمَا" hasr va ta'kid ma'nosini beradi. Zamaxshariy bu jumla tuzilmasini fasohatning eng yuqori namunasi sifatida tahlil qiladi.

Shuningdek, e'robning sintaktik nozikliklarini Qur'on oyatlari orqali isbotlaydi: "مَا هَذَا بَشَرًا" (Yusuf, 31). Bu yerda "بَشَرًا" lafzi "مَا" lafzi sababli mansub bo'lgan, bu orqali nafy inkorining kuchaytirilgan shakli berilgan. Zamaxshariy bu grammatik holatni ta'sirli inkor sifatida baholaydi.

Zamaxshariy asarlari nafaqat grammatik, balki adabiy-ruhiy yuklamaga ega. U arab tilining musiqa, ritm va tuyg'u ifodasi vositasi ekanini namoyish etadi. "Asos al-Balog'a"da u har bir so'zning ohangi, ta'siri va fonetik go'zalligiga alohida e'tibor beradi.

Masalan, so'zlar orasidagi fonetik farqni u shunday tahlil qiladi: "سيف"—oddiy qilich, "حسام"—o'tkir, yaltirab turgan qilich, "صارم"—qattiq uruvchi qilich. Uning tahlilida nafaqat leksik tafovut, balki ruhiy-fonetik sezgi ham mavjud.

Zamaxshariy nazarida nahv faqat til tuzilmasi emas, balki fikrni tartiblaydigan mantiqiy vositadir. Shuning uchun u deydi: "Nahv—aql va til qonunidir. U orqali nafs poklanadi va ibora to'g'ri bo'ladi".

Zamaxshariyning qarashlarida tilning axloqiy tarbiya vositasi sifatidagi roli ham muhim o'rin egallaydi. U so'zning tanlovi, ohangi, ibora ohangida insonning ruhiy holati va iymon darajasi aks etadi, deb hisoblaydi.

"Asos al-Balog'a"da u shunday majoziy ifodalarni keltiradi: "فلان خفيف الظل"—"Uning soyasi engil"—ya'ni hazilkash, xushchaqchaq odam, degani. "تقيل الروح"—"Ruhiy og'ir"—ya'ni zerikarli, yoqimsiz odam, degani. Bu iboralar orqali tilshunoslik axloqiy-estetik mezonlar bilan boyitiladi.

Zamaxshariy o'z asarlarini faqat olimlar emas, balki talabalar ham o'qiy oladigan shaklda yozgan. Masalan, "Al-Mufassal"ning nomlanishi ham bevosita

o'quvchilarga qulaylik yaratish maqsadida: har bir bo'lim "mufassal"–ya'ni tafsilotli, qismlarga bo'lingan.

"Al-Mufassal fi san'at al-e'rob"–arab tilining sintaktik qurilmalari, e'rob qonuniyatlari va grammatik birliklar o'rtasidagi munosabatlarni tizimli tahlil qilgan muhim nahviy manba hisoblanadi. Asar o'z mazmuni, uslubiy aniqligi va tuzilishdagi qat'iyligi bilan hozirgi kungacha lingvistik tahlil mezonini bo'lib qolmoqda.

Asar nomining o'zi–"al-Mufassal" ya'ni "tafsil qilingan, bo'limlarga ajratilgan", degani–bu yerda grammatik bilimlarning tartibli, bo'limli taqdim etilishini bildiradi.

"Al-Mufassal" an'anaviy arab grammatikasidagi so'z turkumlariga asoslanib, to'rtta asosiy bo'limdan iborat:

1. Ismlar;
2. Fe'llar;
3. Harflar;
4. Mushtarak holatlar.

Zamaxshariy Basra maktabining asosiy nazariyalarini qabul qilgan bo'lsa-da, ba'zi masalalarda Kufa maktabining amaliy dalillariga ham murojaat qiladi. U maktablar o'rtasidagi tafovutni bayon etarkan, har ikki tomonning fikrini taqqoslaydi, lekin o'z hukmini ham bildiradi.

Zamaxshariy uchun e'rob–arab tili grammatikasining tayanch tushunchalaridan biridir. "Al-Mufassal"da u e'robni so'zning oxiridagi o'zgarish bilan cheklamaydi, balki bu hodisani semantika, gapdagi sintaktik rol va tarkibdagi mantiqiy pozitsiya bilan bog'laydi.

Uning ta'rifiga ko'ra: "الإعراب هو تغيير أواخر الكلم لاختلاف العوامل الداخلة عليها لفظاً أو تقديرًا." Ya'ni, "E'rob–bu so'z oxirining o'zgarishidir, bu o'zgarish unga kirgan omillar sababli, lafzan yoki taqdiran yuz beradi." Bu ta'rif nahviy sabablar (العوامل النحوية), e'rob holatlari (جزم، نصب، جر، رفع)، va bu holatlarning ko'rinmas sabablari bilan bog'liq.

Masalan: "رأيتُ زيداً"–"Zayd keldi." → "Zayd marfu", chunki u foildir. "Men Zaydni ko'rdim." → "Zayd mansub", chunki u maf'uldir. "مررتُ بزيدٍ"–"Men Zaydning oldidan o'tdim." → "Zayd majrur", chunki undan oldin jar harfi o'tgan.

Zamaxshariy "Al-Mufassal"da muftado-xabar strukturasi ustida alohida to'xtaladi. Uning nazarida bu birlik arab tilidagi jumla tuzilmasining asosiy modeli bo'lib, barcha boshqa sintaktik konstruktsiyalar shu modelga bo'ysunadi yoki unga nisbatan tahlil qilinadi.

Uning ta'rificha: "المبتدأ هو الاسم المسند إليه، والخبر هو المسند." Ya'ni, "Muftado–unga biror narsa isnod qilinadigan ism; xabar esa–u bilan isnod qilinadigan ism."

Shuningdek, u muftado va xabar o'rtasidagi mutanosiblikni jins, aniqlik, noaniqlik, son kategoriyalari asosida baholaydi.

“Asos al-Balog‘a” arab tili lug‘at boyligini nafaqat izohlash, balki uning uslubiy va semantik qirralarini ochib berishga qaratilgan. U boshqa oddiy lug‘atlardan farqli ravishda so‘zlarning: asl lug‘aviy ma‘nosi, gapdagi ishlatilishi, uslubiy yuklamasi, majoziy talqini va adabiy-estetik ta‘siri bilan birgalikda keltirilgan. Bu yondashuv arab tilshunosligida leksik-semantik stilistika deb ataladi.

Zamaxshariy arab tili balog‘atining eng nozik qatlami–majoz va isti‘ora(metafora) vositalarini chuqur o‘rganadi. Bu jihat asarning zamonaviy stilistikadagi o‘rnini belgilaydi. Majoz–so‘zning asl ma‘nosidan boshqa kontekstga ko‘chirilishidir. Masalan: "فلان طويل النجاد"–ya‘ni, “falonchining qini uzun”, degan iboraning majoziy ma‘nosi “falonchining bo‘yi uzun”, deganidir. "فلان عريض القفا"– “falonchining bo‘yni keng”, degan iboraning majoziy ma‘nosi “falonchi sodda odam”, degani bo‘ladi. Zamaxshariy bu kabi ifodalarni fasohat mezoni deb hisoblaydi.

Iste‘ora (Metafora) – bu balig‘ kuchli tashbeh bo‘lib, bunda mushabbah(o‘xshatilmish) va mushabbah bih(unga o‘xshatilmish)lardan biri hazf qilinadi. Masalan: "رأيت أسدا يحارب في المعركة", Ya‘ni, “Jang maydonida urushayotgan sherni ko‘rdim”, degani.

Zamaxshariy bunday jumalarni Qur‘on va hadisdagi iboralar bilan solishtirib tahlil qiladi. Bu yondashuv hozirgi pragmatik stilistika doirasiga to‘g‘ri keladi.

Zamaxshariy “Asos al-Balog‘a” asarida balog‘at (بلاغة), fasohat (فصاحة), bayon (بيان) kabi klassik uslubshunoslik tushunchalariga asoslanadi. Zamaxshariy tilni shunchaki ma‘lumot yetkazish vositasi emas, balki ruhiy-axloqiy, estetik va ijtimoiy ta‘sirga ega qurol sifatida talqin qiladi. Masalan: "صاحب وجهٍ باسم", ya‘ni, “Kulib turuvchi yuz sohibi” degan ibora “muomalasi yumshoq odam”, degan ma‘noni anglatadi. "فلان سريع البديهة", ya‘ni, “Tez javobli”, degan ibora “aql-zakovati tez ishlaydigan shaxs”, degan ma‘noni anglatadi.

Bu kabi ifodalar bayon (بيان) fanining ob‘yektini bo‘lib, uslubshunoslik va psixolingvistika o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi.

Zamaxshariy Qur‘on tilini arab tilining eng fasohatli, eng mustahkam va eng murakkab qatlami deb hisoblaydi. U “Asos al-Balog‘a”da Qur‘on oyatlarida ishlatilgan lug‘aviy birliklarning asl lug‘aviy ildizi, adabiy ishlatilishi, uslubiy ta‘siri haqida chuqur izohlar beradi. Masalan, Qur‘ondagi “فَطَرَ”, “بَرَأَ”, “خَلَقَ” so‘zlari hammasi “yaratmoq” degan ma‘noni bildirsa-da, ularning ishlatilish konteksti turlicha hisoblanadi. Chunki, "فَطَرَ"–hech narsasiz, ilk marotaba yaratish, "بَرَأَ"–modda bilan bog‘liq tanani yaratish, "خَلَقَ"–tizimli, yaratish, degan ma‘nolarni ifodalaydi.

Zamaxshariy Qur'on uslubini leksik-semantik balog'at mezonini sifatida asoslaydi. Bu esa Qur'on tilini o'rganishda "Asos al-Balog'a"ni zarur vositaga aylantiradi.

Zamaxshariyning "Asos al-Balog'a"si hozirgi zamonaviy tilshunoslikda quyidagi sohalarga bevosita ta'sir ko'rsatgan:

Stilistik sinonimiya va konnotatsiya nazariyasi. Zamaxshariy keltirgan har bir sinonim so'z bugungi semantik spektr nazariyasi uchun asosiy misoldir. U nafaqat ma'nodagi farqni, balki hissiy yuklamani ham ajratib beradi.

Pragmatik stilistika va matnshunoslik. Zamaxshariy lug'atini har bir so'zning ishlatilish kontekstiga qarab tahlil qilgani sababli, u bugungi stilistik pragmatika va kontekstual lingvistikaning nazariy poydevoriga hissa qo'shgan hisoblanadi.

Misollarni maxsus vaziyatlar bilan bog'lab sharhlaydi. Masalan, "فلان له لسان ذرب", ya'ni "Uning tili o'tkir" degan ibora jasoratli, aniq, lo'nda so'zlaydi, degan ma'noni ifodalaydi.

Leksikografiya va kognitiv lug'atlar asoschisi. U har bir so'zni kontekstdagi vazifasi, ijtimoiy ta'siri, psixologik ohangi bilan o'rgangan. Bu yondashuv hozirgi zamonda kognitiv lingvistika va til-ruhiyat psixologiyasi asoslarini o'z ichiga olgan.

XULOSA

Mahmud Zamaxshariyning "Al-Mufassal" va "Asos al-Balog'a" asarlari arab tilshunosligi tarixida grammatik va stilistik tafakkur rivojiga beqiyos hissa qo'shgan. "Al-Mufassal" asari arab tilining sintaktik tuzilmalari, e'rob qonuniyatlari va nahviy birliklarini aniq va tizimli ravishda yoritgan bo'lsa, "Asos al-Balog'a" asari esa so'z boyligi, leksik tafovutlar, majoziy ifodalar va bayon san'atining nozik qirralarini ochib bergan.

Maqolada ushbu ikki asarning grammatik va uslubiy jihatlari nazariy hamda qiyosiy nuqtai nazardan tahlil qilindi. Har ikkala asarning Basra va Kufa grammatik maktablari bilan bog'liqligi, Qur'on tili bilan aloqasi, semantik va stilistik imkoniyatlari tahlil etildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Zamaxshariy yondashuvi zamonaviy lingvistika-semantika, pragmatika va kognitiv yondashuvlar bilan uyg'unlashadi.

Shunday qilib, Zamaxshariy merosi bugungi arab tilshunosligi va til o'qitish metodikasida ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga egadir. Uning qarashlari, ayniqsa, Qur'on tili tahlilida, balog'at, semantika va stilistikada muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zamaxshariy. M. "Al-Mufassal fi San'at al-E'rob". Qohira. "Dor al-Ma'arif". 2001.

2. Zamakhshariy. M. "Asos al-Balog'a". Bayrut. "Dor al-Kutub al-Ilmiyya", 1998.
3. Zulhumor, X. O. L. M. A. N. O. V. A. (2017). Babür'ün Özbek Dilbilimini Geliştirmedeki Büyük Hizmetleri. *Journal of Modern Turkish Studies*, 14(1), 85.
4. Ibn Ya'ish. "Sharh al-Mufassal". Bayrut. "Dor al-Fikr", 2001.
5. Ibn Hishom. "Mug'niy al-Labib". Bayrut. "Dor al-Fikr,". 2000.
6. Al-Tunjiy. M. "Al-Nazariyya al-Lug'aviyya 'inda al-Zamaxshariy". Damashq. "Dor al-Qalam." 2005.
7. Dadaboyev, H., Hamidov, Z., & Xolmanova, Z. (2007). O 'zbek adabiy tili leksikasi tarixi. Toshkent: Fan, 97-103.
8. Zulxumor, X. (2023). Bobur–semantikaning sohir bilimdoni. Роль наследия Захириддина Мухаммада Бабура в развитии восточной государственности и культуры, 1(1).
9. Al-Xuliy. S. "Al-Balog'a va al-Tatbiq". Qohira. "Maktabat al-Nahda al-Misriyya" 1993.
10. Bilveren, T. (2015). Babürnâmedeki bazı kelimelerin tarihî ve etimolojik tahlili. *Kilis 7 Aralık Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi*, 5(9), 114-118.
11. G'alvash. M., Umar A. M. "Tarix al-Nahv al-Arabiy". Qohira. "Maktabat al-Adab". 2002.